


Topshiriqlar:

1. Turli geografik zonalarda o'suvchi o'simliklar ildizining tuzilishida farqlar mavjudmi? Osimliklar ildiz sistemasiga ular o'sib turgan muhitning ta'sirini ko'rsatish uchun turli geografik zonalarda o'suvchi o'simliklar ildizining tuzilishini taqqoslab ko'ring. **(Botanika, geografiya va ekologiya fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

Geografik zona	O'simlik nomi	O'simlik ildizining o'ziga xosligi	Ildiz tuzilishining muhitga moslashuvi
Cho'l	Kaktus	yuza joylashgan, keng tarqalgan ildiz tizimi,	suvni tezda shimish uchun.
O'rmon			
Tog`			
Dasht			
Botqoq			
Suvli muhit			

2. Shakli o'zgargan ildizlarda (masalan, sabzi, sholg'om, lavlagi) saqlanadigan organik moddalarning kimyoviy tarkibini tahlil qiling. Savol: Bu ildizlarda eng ko'p saqlanadigan moddalar qaysilar? Ulardan tibbiyot yoki oziq-ovqat sanoatida qanday foydalaniladi? **(Botanika, kimyo, tibbiyot va ingliz tili fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

Root crop of carrot (1, 2), turnip (3, 4) and beet (5, 6, 7)



(on the cross cut the xylem marked by black color;
horizontal line – a border between stalk and root)

3. “Bitta o‘simlik – bitta foyda” nomli poster tayyorlang. Bunda har bir talaba bir o‘simlikni tanlab olib, uning ekologiya, tibbiyot va inson hayotidagi ahamiyatini ochib beruvchi o‘rtacha 200 so‘zdan iborat gazetalarda yoritish uchun mo‘ljllangan matn tayyorlaydi. **(Botanika, tibbiyot, ekologiya fanlarining va jurnalistikaning integratsiyasiga oid topshiriq).**



Poster uchun namuna.

4. Tabobatda qaysi o‘simliklarning ildizi qanday maqsadlarda ishlatiladi? Bu haqida ma‘lumotlar to‘plang. To‘plagan ma‘lumotlaringiz asosida prezentatsiya tayyorlang. **(Botanika, tibbiyot va kompyuter texnologiyalari fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**